

## **UCHINCHI DUNYO MAMLAKATLARI – XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMINING “SOVUQ URUSHI” DAVRIDA.**

***Boboxonov Lochinbek Yunusali o'g'li***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: [officialbobokhonov@gmail.com](mailto:officialbobokhonov@gmail.com)*

***Sattorov Muzrob Chori o'g'li***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: [sattorovmuzrob87@gmail.com](mailto:sattorovmuzrob87@gmail.com)*

***Normo'minov Samariddin Botirali o'g'li***

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: [samariddinnormominov74@gmail.com](mailto:samariddinnormominov74@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Quyida berilgan maqolada Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro maydonda ro'y bergan voqealar, imperiyachilik hamda mustamlaka siyosatining yemirilishi, “Uchinchi dunyo mamlakatlari” nomi bilan tarix sahnasiga kirgan yangi mustaqil davlatlarning jahon siyosatida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musulmankachilik tizimi inqirozi, Hindi-Xitoy davlatlari mustaqillik kurashi, “Afrika yili”, “Bandung konferensiyasi”, musulmankachilikka chek qo'yish deklaratsiyasi.

Ikkinchi jahon urushi tugashi bilan eng dolzarb muammolardan biri – bu musulmankachilikni tugashi va xalqlarning erkin yashashi hamda o'z taqdirini o'zlari hal qilishlari bo'ldi. Eng ko'p musulmankaga ega bo'lgan davlatlar Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Italiya va Portugaliya hisoblanar edi. Ulardan birontasi ham Osiyo va Afrika hududidagi xalqlarga erkinlik berishi va o'z ixtiyorlari bilan bu yerlardan chiqib ketishni istamas edi. Ikkinchi jahon urushi tufayli jahon tarixi jarayonlarida keskin

o'zgarishlar yuzaga keldi, natijada mustamlakachi imperiyalar tanazzulga yuz tutib, ko'plab mustaqil davlatlar tashkil topa boshladi. 40-yillarning boshlaridayoq Suriya va Livanning mustaqilligi tan olindi. Oldinroq esa Misr va Iroq mustaqillik to'g'risida Angliya bilan kelishuv imzolashdi ( 1930 va 1936-yillar ), biroq bu shartnomalardagi ba'zi bandlar ularning suverenitetini cheklar edi. Urushdan keyin birinchi bo'lib mustaqilikni qo'lga kiritish uchun Hindi-Xitoy xalqlari harakatga kelishdi. Shunisi harakterliki, 30-yillarda Buyuk Britaniya Hindistonning Millatlar Ligasiga kirishiga to'sqinlik qila olmadi. BMT raxnamoligida sobiq SSSR hamda AQSH mustamlakachilikka qarshi kurash olib borish pozitsiyasini yoqlab chiqdilar. Natijada mustamlakachilik tizimida inqirozga yuz tutdi. 1947-yilda Angliya hind xalqining ozodligini tan olishga majbur bo'ldi. Bu hududda ikkita mustaqil davlat – Hindiston va Pokiston vujudga keldi. 1948-yilda Angliya o'zining yana bir mustamlakasi Birmaning mustaqilligini tan oldi. 1949-yilda Niderlandiya Indoneziyaning suverenitetini tan oldi. Ayrim mustamlakalarda xalqlar o'z ozodlilarini qo'lga kiritishlari uchun uzoq vaqt kurash olib borishlariga to'g'ri keldi. Vetnam xalqi o'z ozodligi uchun fransuz mustamlakachilariga qarshi uzoq vaqt davomida – 1945-yildan to 1954-yilgacha kurash olib bordilar. 1954-yili fransuzlar Vetnamning Den Ben Fu yaqinida mag'lubiyatga uhradilar va Vetnamni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Jazoir xalqi esa 1954-yildan to 1962-yilgacha qarshi kurash olib bordi va Fransiya beshinchi Respublikasi prezidenti Sharl de Gol davrida Fransiya Jazoirning mustaqilligini tan oldi. Mag'rib mamlakatlaridan Jazoir, Tunis, Marokash 50-yillarning ikkinchi yarmida fransuzlardan: arab knyazliklari: Aden, Quvayt, Bahrayn va boshqalar 50-70-yillarda inglizlar zulmidan qutulishdi. Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan so'ng, Afrikaning qolgan xalqlari ham mustaqillik yo'liga o'tishdi. “Afrika yili” deb e'lon qilingan 1960-yilning o'zidayoq Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiyaning sobiq mustamlakalari o'rnida 17 ta davlat siyosiy mustaqillikka erishdi. Bu jarayon yana davom etdi. 1973-1975-yillarda portugallarning sobiq mustamlaka xalqlari mustaqillikka erishdi. 1989-yilda Afrikada saqlanib qolgan yagona mustamlaka – Namibiya ham suveren davlat maqomini oldi.

1955-yilda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Seylon (1972-yildan boshlab Shri-Lanka ) davlatlarining tashabbusi bilan Indoneziyaning Bandung shahrida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada Osiyo va Afrika qit'alaridan 29 ta mustaqil davlatlarning vakillari ishtirok etdilar. Bu konferensiyada "Bandung deklaratsiyasi" nomli hujjat qabul qilindi va bu hujjatga ko'ra, mustamlakachilik, irqchilik, millatchilik kabi g'ayriinsoniy siyosat va mafkuralar taqiqlanadigan bo'ldi. Bandung konferensiyasi milliy-ozodlik harakatining rivoji va mustamlakachilikning barham topishida katta rol o'ynaydi. Xitoy, Hindiston va boshqa davlatlarning tashabbusi bilan 1960-yil 14-dekabrda BMT bosh assambleyasi Mustamlakachilikka chek qo'yish va xalqlarga erkinlik berish deklaratsiyasini qabul qildi. Mustamlakachilik tuzumi nima sababdan inqirozga yuz tutdi? Bu ulkan tarixiy voqea bir qator omillarga bog'liq holda sodir bo'ldi. Birinchidan, mazkur tuzum iqtisodiy jihatdan o'z umrini yashab bo'lgan edi. Mustamlaka mamlakatlarida konchilik sanoatining asoslari yaratilgan, sanoat tovarlari evaziga Yevropaga xomashyo yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yilib, mahalliy burjuaziya shakllangan, u Yevropa sarmoyasi vakillari raxbarligi va ishtirokida yuqoridagi ishlarni nazorat qilishni o'rganib olgan edi. Ayrim aholi guruhlariga yevropacha istemol andozalari singdirilgan, bu esa G'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilgan ko'pgina tovarlar bilan savdo-sotiq qilishni kafolatlagan edi. Ikkinchidan, mustamlakachilik tuzumining siyosiy jihatdan umri bitgan edi. G'arb davlatlarida demokratiyaning kengayishi, barcha aholi qatlamlarining siyosiy hayotga faol aralashuvi tufayli ular asrlar davomida nodemokratik usulda va jamiyatdan ajralgan holda ish ko'rgan va mustamlakalarni boshqarib kelgan markazlashgan davlat muassasalari o'rtasida ziddiyat boshlangan edi. Xuddi ana shu sohani demokratiyalash, o'zaro kurashayotgan ijtimoiy kuchlarni, jumladan, so'l partiyalarni avvalgidek qattiq nazorat ostida tutishning endi iloji bo'lmay qolgan edi. Uchinchidan, mustamlakachilikning mafkuraviy jihatdan umri tugagan edi. Mustamlakalarda ham mahalliy aholi orasida yevropacha madaniy qadriyatlar va ta'lim usullari, G'arb turmush tarziga xos ayrim unsurlarning tarqalishi mustamlakachilik mafkurasi tarafdorlarining Osiyo va Afrika mamlakatlarida "yevropaliklarning madaniy-

tarbiyaviy missiyasi” haqidagi asosiy g’oyasiga putur yetkazmoqda edi. Yevropaliklar o’z davlatlarining buyuk imperiya maqomidan ayrilib qolish fikridan psixologik jihatdan vos kechishi qanchalik qiyin bo’lmasin, ushbu o’lkalarda shunday g’oyat mushkul ahvol yuzaga kelgandi. Yevropa davlatlari Osiyo va Afrikadan chiqib ketgan bo’lsa-da, biroq bu qit’alarda hali o’z mavqelarini yetarlicha saqlab qolishga muvaffaq bo’ldilar. Ayniqsa, Yevropa davlatlari o’z texnikaviy ustunliklariga tayanib, tashqi savdo soxasida sobiq mustamlakalarda yetakchi o’ringa ega edi. Osiyo, Afrika mamlakatlari Yevropa davlatlari uchun xomashyo ishlab chiqarish bazalari bo’lib qolaverdi. Tayyor mahsulotlar Yevropa davlatlarida ishlab chiqarilib, xomashyo Osiyo va Afrika mamlakatlaridan keltirilar edi va bunda tayyor mahsulotlarning narxi xomashyodan ko’ra o’nlab marta ziyod miqdroni tashkil qilar edi. Bu Yevropa davlatlariga katta daromad keltirar edi. Yevropa davlatlari o’zlarining iqtisodiy va texnikaviy ustunliklaridan foydalanib, g’arb turmush tarzini hamda uning urf-odatlarini sharq xalqlariga singdirishga urinmoqdalar. “ Ayniqsa, bugungi kunda, - deb yozadi I.A.Karimov, - xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o’zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun “erkinlik va demokratiyani olg’a siljitish” niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko’zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o’z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi... Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida ahloqiy buzuvlik va zo’ravonlik, individualizm, egosentrizm g’oyalarini tarqatish, kerak bo’lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga depisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan tahdidlari odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. X.Kichkilov, M.Fayzullayeva – “Eng yangi tarix” (1945-2010-yillar). – T.,2011. – B. 5-6.
2. R.Farmonov, Q.Jo’rayev – “ Xalaqro munosabatlar tarixi “. – T.,2013. – B.146-148.
3. M.Abdurazzoqova – “ XX asr ikkinchi yarmi jahon tarixi”. –T., 2000. – B.135-136.
4. M.Lafasov, U.Jo’rayev – “Jahon tarixi”. –T.,2005
5. I.Karimov – “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. –T.,2008. –B. 116-117
6. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/6).
7. Мамаражабов, В. N. O. L. (2021). SAUDIYA ARABISTONDAGI OZBEK (TURKISTONLIK) LARGA DOIR TARIXIY JARAYONLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 895-900.